

## Review of law sciences

---

Volume 1  
Issue 1 *Review of law science 2017-1*

Article 4

---

10-16-2017

### The importance of the interpretation of the law in the process of law enforcement

Sh.A. Saydullaev

*Tashkent state university of law, Tashkent, 100047, Uzbekistan, sh.saydullaev@tsul.uz*

Follow this and additional works at: [https://uzjournals.edu.uz/rev\\_law](https://uzjournals.edu.uz/rev_law)



Part of the [Public Law and Legal Theory Commons](#)

---

#### Recommended Citation

Saydullaev, Sh.A. (2017) "The importance of the interpretation of the law in the process of law enforcement," *Review of law sciences*: Vol. 1 : Iss. 1 , Article 4.

Available at: [https://uzjournals.edu.uz/rev\\_law/vol1/iss1/4](https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol1/iss1/4)

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Review of law sciences by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).



## THE IMPORTANCE OF THE INTERPRETATION OF THE LAW IN THE PROCESS OF LAW ENFORCEMENT

Sh.A.SAYDULLAEV<sup>a</sup> Tashkent State University of Law, Tashkent, 100047, Uzbekistan

<sup>a</sup>Tashkent State University of Law

## ЗНАЧЕНИЕ ТОЛКОВАНИЯ НОРМ ПРАВА В ПРОЦЕССЕ ПРАВОПРИМЕНЕНИЯ

Ш.А.САЙДУЛЛАЕВ<sup>a</sup> Ташкентский государственный юридический университет, Ташкент, 100047, Узбекистан

<sup>a</sup>Ташкентского государственного юридического университета

## ҲУҚУҚНИ ҚЎЛЛАШ ЖАРАЁНИДА ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИ ШАРҲЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ

Ш.А.САЙДУЛЛАЕВ<sup>a</sup> Тошкент давлат юридик университети, Тошкент, 100047, Ўзбекистон

<sup>a</sup>Тошкент давлат юридик университети

**Аннотация:** мақолада ҳуқуқ нормаларини шарҳлаш тушунчаси ва унинг ҳуқуқни қўллаш жараёнидаги о‘рни билан бог‘лиқ масалалар ко‘риб чиқилган. Унда ҳуқуқ нормаларини шарҳлаш суб‘ектлари, турлари ва услубларига оид муҳим жиҳатлар таҳлил қилинган. Муаллиф томонидан О‘збекистон Республикаси қонун ҳужжатларига шарҳлаш билан бог‘лиқ тегишли о‘згартиш ва қўшимчалар киритиш бо‘йича таклифлар илгари сурилган.

**Калим со‘злар:** ҳуқуқни қўллаш, шарҳлаш, ҳуқуқ нормаси, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, интерпретация, тушунтириш.

**Аннотация:** в статье рассмотрены понятие толкования норм права и его роль в правоприменительном процессе. Проанализированы ключевые вопросы толкования норм права, суб‘екты, виды и методы. Автором предлагается внести изменения и дополнения в законодательство Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** правоприменение, толкование, норма права, нормативно-правовые акты, интерпретация, раз‘яснение.

**Abstract:** In the article, a conception of interpretation of legal norms and its role in the process of law application are considered. The key issues of interpretation of legal norms, subjects, types and methods are analyzed. By the author, it is suggested to make amendments and additions to legislation of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** law application, interpretation, norm of law, normative-legal acts, explanation.

Нуқуқ нормасини шарҳлаш масаласи замонавий юриспруденциянинг долзарб мавзуларидан бири ҳисобланади. Нуқуқни шарҳлаш махсус юридик категория сифатида о‘зининг алоҳида мазмун ва моҳиятига эга. Нуқуқни амалга оширишда унинг умумий тавсифи тегишли тарзда муайян ҳаётий шарт-шароитга татбиқан аниқлаштирилади. Амалиётда ҳуқуқнормаларининг то‘ғ‘ри татбиқ этилиши ва қўлланиши учун уларни шарҳлаш зарур бо‘лади. Шу асосда ҳуқуқ нормаларининг матндаги ифодаси билан

qo‘llaniladigan ijtimoiy munosabat mazmun-mohiyatining bir-biriga mos kелиши ta‘minlanadi.

Sharhlash huquq normalarini qo‘llash va ularni boshqa shakllarda amalga oshirish jaraёnida beqiyos ahamiyatga ega. Huquqni sharhlash jaraёnida muhim jihati bu muayyan normaning matni hisoblanadi. Chunki aynan unda nafoqat qonun chiqaruvchining, balki davlatning ob‘ektiv ravishda normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan irodasi ifodalanaди.

“Sharhlash” lotincha “interpretatio” so‘zining ma‘nosini bildiradi. U insoniyat tomonidan yaratilgan turli moddiy va nomoddiy predmetlarni izohlashni anglatadi. Moddiy madaniyat ob‘ektlari bo‘lgan san‘at asarlarini sharhlash eki ezma manbalar matnini talqin etish bunga misol bo‘la oladi. Ezma manbalar matnini sharhlash atamasi huquqni sharhlash jaraёnida ham qo‘llaniladi [1].

Huquq normalarini sharhlash mazkur faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarning huquqiy ongi darajasi, kasbiy mahorati va madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu jihattan olganda, muayyan bir qonunchilik hujjatining sharhlanishi kim, qanday va qaysi maqsadni ko‘zda tutganligiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Bunda asosan sub‘ektiv omil ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Chunki sharhlash sub‘ektlari turlicha siёсий, ahloqiy va huquqiy onga, ayrim hollarda esa ular bir-biriga qarshi bo‘lgan mafkuraviy nuqtai nazarlarga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida, huquqni tushunish va sharhlashga muayyan darajada salbiy ta‘sir o‘tkazishi hamda keyinchalik qonunchilik bilan u tartibga soladigan ijtimoiy voqelik o‘rtasida kolliziyalarning kелиb chiqishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, ushbu holat qonunchilik hujjatlarida noaniq va ko‘p ma‘noli atama va tushunchalardan foydalаниш oqibatida kелиb chiqadi.

Agar huquq normalari bilan ijtimoiy voqelikda yuzaga keladigan eng muhim munosabatlar tartibga solinishini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, fikrimizcha, barcha huquq normalari hech bo‘lmaganda norasmiy tarzda bo‘lsa-da, sharhlanishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, huquq normasining mazmun va mohiyatini to‘g‘ri anglash va tatbiq etish hamda kollizion holatlarning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ta‘kidlash joizki, normativ-huquqiy hujjatlarda aks etgan huquq normalarining ruhi bilan uni ifoda etish usuli va shakli o‘rtasida to‘la uyg‘unlikka doim ham erishib bo‘lmaydi. Bunday holatlarda yuzaga kelgan kolliziyalarni hal etish asosan sharhlash usuli orqali amalga oshiriladi.

Huquqda sharhlash zarurati uning shakli va mazmuni o‘rtasidagi ehtimol tutilgan ziddiyatlar bilan ham yuzaga keladi. Shundan ham huquq mazmuni normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topadi, afsuski, bu hujjatlar hamisha ham qonun chiqaruvchi irodasini ifodalayvermaydi. Yuridik texnikaning past darajasi, texnik yo‘nalishdagi kamchilik va nuqsонlar huquqdagi bo‘shliqlarga, qarama-qarshiliklarga, uning mazmuni buzilishiga olib boradi. Bunday holatlarda sharhlash yuridik ko‘rsatmaning haqiqiy mazmunini bилиshning muhim sharti bo‘lib qoladi.

Yuridik adabietlarni tahlil qilish ekanmiz, ularda barcha huquq normalarini eki faqat noaniq, ya‘ni yuridik kolliziyalarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalarni sharhlash zarurmi, degan masala yuzasidan bahs-munozaralar mavjudligini ko‘ramiz [2].

Ba‘zi bir mualliflar, huquqni sharhlash deganda, faqat huquq normasi mazmunini aniqlab olishni tushunchalar, boshqalari esa huquqiy norma mazmunini tushuntirishni

шарҳлаш деб ҳисоблайдилар. Учинчи ёндашув тарафдорларининг фикрича, ҳуқуқни шарҳлаш – ҳуқуқ мазмунини ҳам аниқлаш, ҳам тушунтириб беришдан иборат. Ҳуқуқни шарҳлаш тушунчасини идрок этишда дастлабки икки ёндашувда бир томонламаликка йўл қо‘йилади. Аслида, қонунчиликни шарҳлаш – қонун ва қонуности ҳужжатларнинг мазмунини аниқлаш ва уни тушунтириб беришдан иборат мураккаб ижодий жараён бўлиб, ҳар икки жиҳатнинг ягоналигида намоён бўлади [3].

**Ҳуқуқ нормасини шарҳлаш масаласи қуйидаги учта муҳим масалани о‘з ичига олади:** 1) ҳуқуқ нормасини шарҳловчи суб’ектни аниқлаш (давлат органлари, мансабдор шахслар ва бошқалар). 2) ҳуқуқ нормасининг мазмунини аниқлаш учун қо‘лланладиган усулларни танлаш (мантиқий, грамматик, тарихий ва тизимли ва бошқалар); 3) татбиқ этилаётган норманинг ҳажми бўйича ва юридик кучига қараб шарҳлаш.

Ҳуқуқ нормаларини шарҳлаш қатор усуллар орқали амалга оширилади. Хусусан, грамматик шарҳлашда ҳуқуқ нормасининг умумий моҳиятига эмас, балки ундаги алоҳида терминлар, со‘з ва гаплар моҳиятига э‘тибор берилади. Грамматик шарҳлаш орқали ҳуқуқ нормаларидаги терминларни қо‘ллашда хатоликларга йўл қо‘йилишининг олди олинади.

Мантиқий шарҳлаш грамматик шарҳлашдан фарqli равишда ҳуқуқ нормасидаги со‘зларнинг том ма’носини аниқлашга эмас, балки ҳуқуқ ижодкори ифодалаб бермоқчи бўлган ва аниқ со‘з шаклида ко‘рсатиб қо‘йилмаган қонданнинг моҳиятини тушунишга хизмат қилади. Мантиқий шарҳлаш орқали ҳуқуқ нормасининг икки хил талқини келиб чиқади. Уларнинг биринчиси қонуннинг асл моҳияти бўлса, иккинчиси мантиқий шарҳлаш орқали аниқланган моҳиятидир.

Тарихий-сиёсий шарҳлаш ҳуқуқ нормасининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий томонларини ва тарихий шарт-шароитларини тадқиқ этишда намоён бўлади. Бу норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилиш мақсадини, унинг вужудга келишига сабаб бўлган ижтимоий-сиёсий вазиятни, жойи, вақти ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қо‘ллаш амалиётини аниқлаб олишни тақозо этади. Хусусан, “ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ходимлари учун тарихий-сиёсий шарҳлаш жуда муҳим. Чунки айнан шу фаолият давлат манфаатлари ва уларни ҳимоя қилиш билан узвий бог‘лиқ. Шунинг учун ҳам қонунчиликнинг сиёсий мақсадини тушуниш, унинг тарихини билиш ишнинг сифатли ва бир мақсадга қаратилган бо‘лишига ёрдам беради” [4].

Тизимли шарҳлашда муайян ижтимоий муносабатни тартибга солувчи ҳуқуқ нормаси аниқ бир ҳужжат доираси билан шекланилмайди. Балки бунда тегишли муносабатни тартибга солувчи барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар доираси мазмунан шарҳланади. Шу жиҳатдан олганда, тизимли шарҳлаш муайян нормани то‘ғри ва қонунчиликка то‘ла мос ҳолда қо‘ллашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини алоҳида та’кидаш лозим. Бинобарин, норматив-ҳуқуқий ҳужжат, энг аввало, мантиқий мунтазамликка асосланган ҳолда бир-бирига бог‘лиқ ва ҳар бири олдинги норманинг мазмунидан келиб чиқадиган нормалар тизимидан иборат бўлиши лозим. Бошқача қилиб айтганда, ҳар бир норма қонун ёки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжат – яхлит бир тизимнинг мустақил, бироқ о‘зигача ва о‘зидан кейинги нормаларга мазмунан бог‘лиқ бирлиги сифатида жойлашиши зарур.

Тизимли шарҳлаш усулида ҳуқуқ нормасининг ма’но ва мазмуни унинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатдаги, ҳуқуқ нормаси, ҳуқуқ институти, ҳуқуқ соҳаси ва бутун ҳуқуқ тизимидаги о‘рни ва роли, о‘заро нисбати орқали аниқланади. Тизимли шарҳлаш ёрдамида нормалар ва ҳужжатлар о‘ртасида мавжуд бўлган зиддият, номувофиқлик ва қарама-қаршилик “коллизиялар” аниқланади. Бундай шарҳлаш натижасида расман бекор

қилинмаган, бироқ амалда бошқалари билан алмаштирилганлиги сабабли аҳамиятсиз, фойдаланилмай қолган ҳуқуқ нормалари ҳам аниқланади.

Тизимли шарҳлаш усули орқали шарҳловчи субъект томонидан, биринчидан, ҳуқуқ нормасининг ҳуқуқ тизимидаги о'рни аниқланади, иккинчидан, шарҳланаётган ҳуқуқ нормаси билан, мазкур норма татбиқ этилиши назарда тутилаётган аниқ ҳаётий муносабат о'ртасида мантиқий бог'лиқлик борлиги аниқланади, учинчидан, эса шарҳланаётган норманинг мазмунини билишга эришилади [5]. Шунингдек, тизимли усул татбиқ этилаётган ҳуқуқий норманинг янгиси билан алмаштирилгани, қо'ллашда қоидадан истисно бор-йо'қлиги аниқланади.

Тизимли шарҳлаш жараёнида айрим қонунларда усҳрайдиган “қонунчиликка асосан”, “қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда”, “қонун ҳужжатларига мувофиқ” деган жумлаларнинг мазмун-моҳияти ҳам осиб берилиши лозим. Чунки бундай ҳаволаларнинг мавжудлиги муайян ижтимоий муносабатларнинг ҳуқуқий тартибга солиниши охиригасча тугалланмаганлигидан ва усҳбу ҳаволаки нормаларнинг ҳуқуқий аҳамиятга эга эмаслигидан далолат беради. Бу эса ҳуқуқ нормасини ижтимоий муносабатга то'ғ'ри татбиқ этиш ва шарҳлашда қийинчиликлар келтириб чиқаради. Шу боис қонун ҳужжатларида ҳуқуқий муносабатлар юзасидан хулқ-атворнинг қандай бо'лиши то'ғ'рисидаги қоидалар аниқ, қат'ий ва то'лиқ берилиши мақсадга мувофиқ.

Ҳуқуқ нормаларини шарҳлашнинг ҳуқуқий асослари бир қатор қонун нормаларида о'з ифодасини топган. Хусусан:

1. **О'збекистон Республикасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар то'ғ'рисида”ги Қонуни 43-моддасига ко'ра** “норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни расмий шарҳлаш норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ноаниқликлар топилган, у амалиётда ното'ғ'ри ёки зиддиятли тарзда қо'лланилган тақдирда амалга оширилади. О'збекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари нормаларига расмий шарҳни О'збекистон Республикаси Конституциявий суди беради. Қонуности ҳужжатлари нормаларига расмий шарҳни уларни қабул қилган органлар беради. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни расмий шарҳлаш жараёнида уларга нормаларни аниқлаштиришга қаратилган тузатишлар, о'згартиришлар, қо'шимчалар киритилишига йо'л қо'йилмайди” [6].

2. О'збекистон Республикасининг “О'збекистон Республикасининг Конституциявий суди то'ғ'рисида”ги Конституциявий Қонуни 2-моддасига биноан О'збекистон Республикасининг Конституциявий суди қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимият ҳужжатларининг Конституцияга мувофиқлиги то'ғ'рисидаги ишларни ко'риб чиқиш бо'йисча доимий фаолият ко'рсатувчи суд ҳокимияти органи ҳисобланади.

Конституциявий суд: О'збекистон Республикаси қонунларининг ва О'збекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари қарорларининг, О'збекистон Республикаси Президенти фармонлари, қарорлари ва фармойишларининг, ҳукумат, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарорларининг, О'збекистон Республикаси давлатлараро шартномавий ва бошқа мажбуриятларининг О'збекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқлигини аниқлайди; О'збекистон Республикасининг Президенти томонидан имзолангунига қадар О'збекистон Республикаси конституциявий қонунларининг, О'збекистон Республикаси халқаро шартномаларини ратификация қилиш то'ғ'рисидаги О'збекистон Республикаси қонунларининг О'збекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқлигини аниқлайди; Қорақалпоғ'истон Республикаси Конституциясининг О'збекистон Республикасининг Конституциясига, Қорақалпоғ'истон Республикаси қонунларининг О'збекистон Республикасининг қонунларига мувофиқлиги то'ғ'рисида хулоса беради; О'збекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари нормаларига шарҳ беради; О'збекистон Республикаси Олий судининг муайян ишда

qoʻllanilishi lozim boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlarining Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqdagi toʻgʻrisida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini koʻrib chiqadi; konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga mamakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati toʻgʻrisida axborot taqdim etadi; Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vaqolati doirasida boshqa ishlarini koʻrib chiqadi [7].

Shu oʻrinda joriy qonunchilikda normativ-huquqiy hujjatlarini sharhlash jaraoni hamda sharhlash hujjatlarining huquqiy maqomini aniq belgilab beradigan huquqiy asoslar mavjud emasligini qayd etish joiz.

Muayyan bir masala yuzasidan bir nechta hujjatlarining amalda boʻlishi ularni turlicha sharhlash, notoʻgʻri qoʻllash va kolliizion holatlarining kелиb chiqishiga olib kелиши mumkin. Shu bois huquq normalari bilan tartibga solinishi lozim boʻlgan ijtimoiy munosabatlarini yaqin qonun hujjati bilan qamrab olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, bu boradagi boʻshliqni toʻldirish hamda qonun hujjatlarini sharhlashga doir ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish va qonun hujjatlarini normalarini toʻgʻri tushunish va qoʻllash tizimi samaradorligini oshirish maqsadida **“Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash toʻgʻrisida”gi Qonunini** qabul qilish lozim. Ushbu qonunning asosiy vazifalari qonun hujjatlarini va qonun hujjatlarini rasmiy sharhlashga doir asosiy tushunchalarni, qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash subʼektlarining vaqolatlarini, qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash tartibi va ularning mazmuniga qoʻyiladigan asosiy talablarni hamda qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash yuzasidan chiqarilgan hujjatlarining yuridik kuchini belgilab berishdan iborat. Shuningdek, mazkur qonunda Oʻzbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi qarorlarining sharhlash hujjati sifatida maqomini ham aniq belgilab qoʻyish zarur, deb hisoblaymiz.

## References:

1. Adilkariyev X.T., Tulteyev I.T., N.P.Azizov i dr. Teoriya gosudarstva i prava /Pod obshyey redaksiyey X.T. Adilkariyeva. – T.: Akademiya MVD Respubliki Uzbekistan, 2014. – S.392.
2. Teoriya gosudarstva i prava. Matuzov N.I., Malko A.V. - M.: Yurist, 2004. – 512 s.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. prof. H.T.Odilqoriyev umumiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – B.423.
4. Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi: 2 jild. Huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2001. – B.227.
5. Adilkariyev X.T., Tulteyev I.T., N.P.Azizov i dr. Teoriya gosudarstva i prava /Pod obshyey redaksiyey X.T. Adilkariyeva. – T.: Akademiya MVD Respubliki Uzbekistan, 2014. – S.436.
6. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2012 y., 52-son, 583-modda; 2014 y., 50-son, 588-modda; 2015 y., 32-son, 425-modda; 2016 y., 39-son, 457-modda.
7. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 22-son, 407-modda, 37-son, 978-modda.